

Abduhamid NURMONOV

LINGVISTIK TADQIQOT
METODOLOGIYASI VA
METODLARI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
O'ZBEKISTON JAMHURIYATI
SUS TA'LIM VAZIRLIGI
AT UNIVERSITETI

Abduhamid NURMONOV

**LINGVISTIK TADQIQOT
METODOLOGIYASI
VA METODLARI**

*(«Lingvistika» yo'nalishidagi magistrantlar va
malaka oshirish hamda qayta tayyorlash kurslari
tinglovchilari uchun o'quv-uslubiy qo'llanma)*

Toshkent
«Akademnashr»
2010

Qo'llanmada fan metodologiyasi, metafizik, dialektik, germenevtik, fenomenologik, sinergetik singari umumfalsafiy, shuningdek, tavsifiy, qiyosiy, glottoxronologik, kvantitativ, struktur kabi xususiy ilmiy metodlar haqida bahs yuritiladi.

Risola filologiya sohasidagi yosh ilmiy tadqiqotchilarga, lingvistika yo'nalishidagi magistrantlarga, filologiya yo'nalishidagi malaka oshirish kurslari tinglovchilariga mo'ljallangan.

Kitob Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti Ilmiy kengashi tomonidan o'quv-uslubiy qo'llanma sifatida nashrga tavsiya etilgan.

Mas'ul muharrir:

D. Quronov,
filologiya fanlari doktori

Taqrizchilar:

T. Ortiqov,
falsafa fanlari doktori, professor,
M. Saidxonov,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

ISBN 978-9943-373-20-4

© A.Nurmonov. «Lingvistik tadqiqot metodologiyasi va metodlari». «Akademnashr» nashriyoti, 2010-yil.

SO'ZBOSHI

Har qanday ilmiy tadqiqot muayyan metodologiya va metodlarga tayanadi. Metodologiya va tekshirish metodidan xoli bo'lgan hech qanday ilmiy tadqiqot mavjud emas. Tadqiqotchining o'rganayotgan obyekt mohiyatini haqqoniy yoritishida qanday metodologiya va metoddan foydalanishi juda katta ahamiyatga ega. Shuning uchun ham ilmiy tadqiqot jarayoniga qadam bosayotgan yosh izlanuvchi umumiy fan metodologiyasi va xususiy ilmiy metodlar haqida yetarlicha ma'lumotlarga ega bo'lishi zarur.

Lekin ayrim nomzodlik va hatto doktorlik dissertatsiyalarining «Tadqiqotning umumiy tavsifi» qismiga nazar tashlasangiz, tadqiqotchining metodologiya va ilmiy tadqiqot metodlaridan yetarli xabardor emasligi, xususiy ilmiy metodlardan maqsadga muvofiq ravishda, o'rinli foydalana olish ko'nikmasiga ega emasligi ma'lum bo'ladi.

Bundan yigirma yillar oldin mashhur tilshunos Yu.Stepanov ham «Hozirgi tilshunoslikning g'oyalari va metodlari» asarida yosh tadqiqotchilar asarlarida metodologiya va muayyan xususiy ilmiy metodga tayanish masalasida oqsoqlik kuchayayotganini ta'kidlagan edi.

Mustaqillik sharoitida keng rivojlanish imkoniyatiga ega bo'lgan o'zbek tili fani ham metodologik, ham xususiy ilmiy tadqiqot metodlari nuqtayi nazaridan boyidi. Sho'rolar davrida «burjua metodologiyasi» va «burjua fani metodlari» tamg'alari ostida qoralangan bir qator metodologiya va metodlardan foydalanish imkoniyati yaratildi.

Bu esa yoshlarni bugungi kundagi tadqiqotlar uchun asos bo'lishi mumkin bo'lgan fan metodologiyalari va foydalanishi lozim bo'lgan xususiy ilmiy metodlar bilan tanishtirish muammosini kun tartibiga qo'ydi. Ana shunday hayotiy ehtiyoj tufayli magistratura o'quv rejasiga «Ilmiy tadqiqot metodologiyasi» kursi kiritildi. Mustaqillik davrida metodologiya va metod muammosiga jiddiy e'tibor berilganligi sababli bu masalaga doir N.Shermuhamedova va Q.Nazarovlarning maxsus asarlari dunyoga keldi. Bu asarlar umumfalsafiy xarakterga ega bo'lib, xususiy ilmiy metodlar uchun nazariy asos rolini o'ynaydi. Shu bilan birga

falsafiy metodlarni xususiy ilmiy metodlarga bog'lovchi, xususiy ilmiy metodlarning o'ziga xos xususiyatlarini yorituvchi asarga ehtiyoj sezilmoqda. Qo'lingizdagi risola ana shu ehtiyojni qondirishga bag'ishlanadi. Ushbu qo'llanma yosh lingvistlar uchun mo'ljallangan. Shuningdek, undan metodologiya va metod masalalariga qiziquvchi barcha yosh tadqiqotchilar foydalanishlari mumkin. Bu asarning maydonga kelishi va nashrga tayyorlanishida yaqindan yordam bergan filologiya fanlari nomzodi D.Ne'matovaga muallif chin ko'ngildan minnatdorlik bildiradi.